

YERNING SUV RESURSLARI

Samatova Sayyora Xolmamatovna

*Jizzax viloyati Mirzacho'l tumani MMT bo'limiga qarashli
14-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: ushbu dars ishlanmada 3-sinf o'quvchilari uchun

Dars maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga yerning suvlari haqida ma'lumot berish.

Tarbiyaviy: Ona tabiatga mehr-muhabbatlarini yanada oshirish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilar dunyoqarashini kengaytirish.

Kommunikativ kompetensiya: muloqotga kirishish uchun zarur bo'ladigan og'zaki nutqni o'zlashtirish, jonli va jonsiz tabiat, tabiat hodisalariga oid tayanch so'z va atamalarning ma'nosini aytib bera olish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

mavzuga doir ma'lumotlarni kompyuter va boshqa manbalardan izlab topib, ulardan samarali foydalana olish.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

dunyoqarash va tafakkurini mustaqil ravishda o'stirib borish, atrofidagi tabiat manzaralarini estetik his etish, sportning yoshiga mos turi bilan shug'ullanish, o'zini tuta olish, to'g'riso'z bo'lish, o'zining xatosini tushunish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

davlat ramzlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish; farzandlik va o'quvchilik burchini bilish, unga rioya qilish, sinfdagi jihozlar, o'quv qurollarini asrab-avaylash.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

o'zi yashaydigan o'lkaning tabiati, tarixiy obidalari haqida bilish; uyi, maktabi, turar joyini qadrlash; do'stlari, yaqinlari va atrofdagilarga mehribon bo'lish.

Dars turi : Yangi bilim beruvchi

Dars uslubi: Suhbat ,savol-javob

Dars jihozi: Mavzuga mos rasmlar, didaktik materiallar

Darsning borishi:

I.Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O'quvchilarni

darsga

tayyorgarligini

tekshirish.

Maqsadimiz:

Biz barkamol- o'ktam avlodmiz,

Kelajagi buyuk Davlatmiz.



II.O‘tilgan mavzu yuzasidan o‘quvchilarni bilimlarini savol-javob orqali so‘rab bilish.

O‘tilgan mavzu “Botqoq” usuli orqali so‘raladi. Bunda zilzilalar mavzusiga doir savollar beriladi. O‘ziga ishongan o‘quvchilar chiqib javob beradi. Javob berolmasa botqoqqa tushadi.

- 1.Zilzila nima?
2. Zilzila sodir bo‘lganda nima qilish kerak?
- 3.Zilzila kuchi nima?
- 4.Zilzila sodir bo‘lsa ’zingizni qanday tutasiz?

Uyga vazifa “Zilzila” mavzusida tuzilgan sinkveyn tekshiriladi.

III.Yangi mavzu bayoni. Darslik bilan ishlash.

“Diqqat!” usuli. Bunda mavzuga oid atamalar tushuntiriladi.

Suv – Yer sayyorasida eng ko‘p tarqalgan modda bo‘lib, uning katta qismi okeanlar, dengizlar, daryolar, ko‘llar va muzliklarda to‘plangan. Quruqlikni o‘rab turgan butun suv yuzasi jahon okeani deb ataladi. U 5ta qismga bo‘linadi: Tinch okeani, Atlantika okeani, Hind okeani, Shimoliy muz okeani va Janubiy okean.

Dengiz - bu okeanning quruqlikka tutash qismi . Dengizdagi suv okeandagi suvdan biroz farq qiladi , lekin u ham sho‘r va ichish uchun yaroqsiz .

Suv bilan to‘lgan katta chuqurliklar ko‘llar deb ataladi . Ko‘ldagi suv sho‘r ham , chuchuk bo‘lishi mumkin . Suvning tami daryolardan ko‘lga qanday suv quyilishiga bog‘liq .

Daryolar o‘z harakatini tog‘lardan boshlab , dengiz yoki ko‘llarda quyilish bilan tugatadi . Ko‘pincha daryolar ko‘lga qum va mayda tuproq zarralarini olib keladi . Ular ko‘l tubiga cho‘kadi, natijada ularning tubi asta sekin ko‘tarilib ko‘lda suv o‘simliklari paydo bo‘ladi . O‘simliklar o‘sib chiqqan ko‘l asta sekin botqoqlikka aylanadi

2.Suv havzalarining turi.

Suv saqlanadigan va to‘planadigan joylar suv havzalari deyiladi . Tabiat tomonidan yaratilgan suv havzalari tabiiy , inson tomonidan yaratilganlari esa sun‘iy havzalar deyiladi .

Xaritani o‘rganing . Undagi har bir suv havzasi haqida nima deya olasiz . Ushbu suv havzalaridan qaysi biri tabiiy, qaysi biri sun‘iy ?



Tabiiy suv havzalariga okeanlar , dengizlar , daryolar , ko‘llar va botqoqliklar kiradi . Hovuzlar, suv omborlari , kanallar esa sun‘iy suv havzalari hisoblanadi .

“Tarmoqlash” metodi. Bunda “Suv havzalari turlari” klasterini to‘ldiriladi.



Mavzuni mustahkamlash: bunda tajriba o‘tkaziladi. 3 ta plazmasa stakanda suv olinib, quyidagi rasmda ko‘rsatilganidek, damlamalar tayyorlanadi. Ularning qaysi birini ichish yoqimlilikigi aniqlanadi.



“**Erkin fikr**” usuli orqali Suvni qayday asrash mumkin? Savoliga javob olinadi.

Yer yuzida chuchuk suv sho‘r suvga qaraganda ancha kam. Shuning uchun ichimlik suvini tejash kerak. Rasmlarga qarang. Biz suvni qayerda ko‘proq sarflaymiz. Qanday qilib toza suv sarfini kamaytirish kerak?



Darsda faol ishtirok etgan o‘quvchilarni baholanib, mavzu xulosalanadi.

Uyga vazifa: “Mening foydali odatlarim” mavzusida so‘rovnoma to‘ldirish.